

ABDULLA QAHHOR “O’G’RI” HIKOYASINING LEKSIK TAHLILI

Urunbayeva Zilola Sheraliyevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti 1-bosqich talabasi

urinboyevazilola508@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Abdulla Qahhorning “O’g’ri” hikoyasining leksik tahlili qilingan va va asarning ma’nosi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: leksik tahlil, tahlil, ibora, maqollar, sinonim, “O’g’ri” .

Biz bilamizki, Abdulla Qahhorning hikoyalari voqealar rivoji, asar tilining sodda va ravonligi bilan ajralib turadi. A. Qahhor so’zga o’ta xasis hisoblanadi. A. Qahhor asarlarida biror bir so’zni noo’rin qo’llamaydi. Ya’ni asrni faqat shakl jihatdan emas, mazmun jihatiga ham e’tibor beradi. Asarlarida hech qaysi bir so’zni shunchaki qo’llamaydi. Har bir qo’llagan predmetlari voqealar rivojida albatta qatnashadi. Endi hikoya mavzusiga e’tibor beradigan bo’lsak, nima uchun hikoya sarlavhasi o’g’ri deb nomlangan? O’g’ri deganda kim yoki kimlar nazarda tutilyapti? Kabi savollarga javob berishimiz kerak. Hikoya Qobil boboning ho’kizi yo’qolishi bilan boshlanadi. Bu hikoyaning tub mohiyatiga e’tibor beradigan bo’lsak, bu yerda o’g’ri so’zi ho’kizni o’g’irlagan o’g’riga emas, haqiqiy o’g’rilarga, ya’ni jamiyatga, amaldorlarga, mansabdor shaxslarga qaratilgan. Aslida

haqiqiy o'g'rilar o'shalardir. Shu o'rinda hikoyaning epigrafiga nazar solsak, "Otning o'limi – itning bayrami"(maqol), bu yerda ot sifatida Qobil bobo, it sifatida esa poraxo'r amaldorlar nazarda tutilgan. Ya'ni Qobi bobo ho'kizining yo'qolishi poraxo'r mansabdorlarning bayrami sifatida talqin etiladi. Hikoyada aforizm, iboralardan o'rinli va unumli foydalanilgan. "Quruq qoshiq og'iz yirtar", "Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz", "Fuqaroning arzga borishi arbobbni izzati bo'ladi!", "Uni begim deguncha kishining beli sinar", "O'ynashmagin arbobb bilan - seni urar har bob bilan" kabi ibora va maqollarda mansabparas, molparas, poraxo'r amaldorlarni, ularning bechora, och-nahor xalqqa aziyatini ko'rishimiz mumkin.

Amaldorlarning oddiy xalq ustidan kulishi, xo'rlashi, ularni pisant qilmasligini quyidagi misollar orqali ham bilsak bo'ladi:

"... - Ha, sigir yo'qoldimi?

- Ho'kizmi?..... Ho'kiz ekan-da! Himm..... Ola ho'kiz? Tavba!....

Yana cholning ustidan kulganday "Yo'qolmasdan oldin bormidi? Qanday ho'kiz edi? Yaxshi ho'kizni birov yetaklasa keta beradimi? O'zi qaytib kelmasmikan?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da!" singari misralarni o'qigan o'quvchini beixtiyor g'azabi junbushga keladi, u amaldorlarga nisbatan nafrat tuyg'usi uyg'onadi.

Eng achinarli joyi hikoyani so'nggida keltirilgan fikrlar: "...Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga juda ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi,

lekin “kichginagina” sharti bor. Bu shart kuzda ma’lum bo’ladi...”. Bu yerdagi “kichkinagina” so’ziga e’tibor beradigan bo’lsak, Egamberdi paxtafurushning bu sharti nima bo’lishi mumkin degan o’ylar o’quvchining fikrini torytadi.

Agar kuz kelsa, paxtafurush Qobil boboning hosilini teng yarmini so’rar, yo bo’lmasa hammasini so’rar. Yana hamma jabr-zulm Qobil boboga, Qobil bobo singari oddiy xalqqa bo’ladi. Hikoya yozilgan yilga e’tibor beradigan bo’lsak, 1936-yil - bu davrda yurtimizda sobiq sho’ro hukumati hukmronlik qilgan. Muallif o’sha davr qiyinchiliklarini, xalqning qanday jabr-zulm ko’rganini, o’sha davr poraxo’r amaldorlarni, hukumatni olib brogan noto’g’ri siyosatini hikoyasi orqali qisman ochib bergan.

Asarda korrupsiya, ya’ni poraxo’rlik holatlarini ochiq-oydin ochib bergan misralar ham bir talay. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

“...Ellikboshi ho’kizni juda naqd qilib qo’ydi – go’yo u ko’chaga chiqsa bas – ho’kiz topiladi. Bu “Xudo yallaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo’lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o’ziga yeti yuz bog’ beda, bir toy bergani ma’lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto’xtov aminga xabar qilmoqchi bo’lib chiqib ketdi”, bu yoki amaldorning o’zi ochiq – oydin narsa so’rashlari: “... Suyunchisi nima bo’ladi?

Suyunchisida chashna olib kelinmadimi?” shu kabi poraxo’rliklarga misollar asarning bir qancha joyida kelgan.

Asarni leksik jihatidan tahlil qiladigan bo’lsak, sinonim, antonim, ma’no ko’chishlaridan hikoyada o’rinli foydalanilgan.

Asarning epigrafiga e’tibor bersak: “Otning o’limi – itning bayrami” dagi “o’lim” bilan “bayram” o’zaro zidlikni, ya’ni antonimlikni keltirib chiqaryapti.

“Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og’il eshigi yonida turib dag’-dag’ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko’zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko’rmaydi...” bu gapga esa yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan so’zlari ma’nodoshlikni, ya’ni sinonimlikni hosil qilyapti. Bu so’zlarning ma’nosi bir-biriga yaqin, lekin ko’rinishi har xil.

“... Poshsholikdan oylik yemasa!...” bunda esa ma’no ko’chishdan metafora usuli qo’llangan, ya’ni oylikni yeb bo’lmaydi.

Metonimiyaga esa “ko’nchilikka tushgan” so’zi misol bo’ladi. Ya’ni bu yerda ko’nchilik dastgohida deyilishi ham mumkin edi.

“Badiiy adabiyot “so’z san’ati” deb ham yuritiladi. Adabiyot so’z vositasi bilan obraz yaratganligi sababli san’atning boshqa turlariga nisbatan hayotni va insonlarni mumkin qadar to’laroq ifodalash imkoniga ega”

Darhaqiqat, adib so’z orqali qanchadan qancha voqea hodisalarni ifodalab bergan. So’zlarni, iboralarni to’ri qo’llash orqali asarni tilini yanada tushunarli, sodda va jozibador qilgan.

“Oq podsho qo’lostidan chiqib ketmagan bo’lsa”, “Xudo yallaqagur”, “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi” - bu ibora orqali ellikboshi Qobil boboga shunchaki yordam bermasligini, o’zini vazifasi bo’lsa ham, biror narsa evazigagina qilishi anglashiladi.

“Quruq qoshiq og’iz yirtadi”, “berganga bitta ham ko’p, olganga o’nta ham oz”, “duoning zo’ri bilan qulf ochadigan”, “tepa sochi tikka bo’ldi”, “o’ynashmagin arbob bilan - seni urar har bob bilan” kabi iboralardan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor. O’g’ri – Toshkent: Ziyo nashr nashriyoti, 2024.
2. To’xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari- Toshkent: O’zbekiston nashriyoti- 2002.
3. www.ziyouz.com